

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Arab anori (momordika) o'simligini morfologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi

Xoshimov Xoziakbar Shokirjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Tel: 93 3651611

Annotatsiya: Maqolada dorivor Arab anori (*Momordica Cucurbitatseae*) o'simligini ilmiy asosida yetishtirish, ekish muddati va sug'orish me'yorlarini hosildorlikga ta'sirini o'rganish orqali undan xalq xo'jaligida foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zлari: Lamlikor tuproqlarda, dorivor Arab anori o'simligini xosildorligiga ta'sirini o'rganish.

Arab anori - Qovoqdoshlar oilasiga mansub, 60 ga yaqin turi mavjud bo'lgan bir yillik va ko'p yillik o't o'simliklar, kichik butalar kabi hayotiy shakllarni o'z ichiga oldi.

Momordika -Lianalarga o'xhash ilashib o'suvchi o'simlik bo'lib uning uzunligi 2-6 metrga yetadigan o'simlik hisoblanadi, uning yirik o'ymakor barglari och yashil rangga ega. Uning kelib chiqish tarixida ko'plab ajoyib nomlari mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat: telba bodring, hind anori, achchiq qovun, Hind yoki Xitoy telba bodringi va shunga o'xhash nomlarga ega o'simlikdir.

Nomining o'zi bu o'simlik, lotincha "momordicus"dan kelib chiqib "tishlash" degan ma'noni bildiradi. Arab anorini ko'p turlari ichida iqtisodiy jihatdan eng ahamiyatli ikki turi Momordica Charantia va Momordica Cochinchin foydaniladi. Arab anori urug'lari ochiq yerga ekish mumkin. O'simlik termofil bo'lganligi sababli ko'chatlaridan yetishtirish ham yaxshi samara beradi. Urug'larini yirik to'liq yetuk bo'lganlari yakka tanlash usulida saralanib olinadi. Urug'lar unishi uchun o'z iqlimiga yaqin bo'lgan harorat talab qilinib bu harorat kamida +22 +25 C0 bo'lishi lozimdir. Ekishdan oldin urug'larni namligi muhitda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ko‘p saqlamaslik kerak, aks holda ular chirib qolishi mumkin.

Arab anorining ildizi tizmi kuchsiz zaif bo‘lganligi uchun tuproq bo‘shashi va organik birikmalar bilan yaxshi ta’minlangan bo‘lishi kerak. Urug‘lar ko‘chat holiga keltirgandan so‘ng quyosh bilan yaxshi ta’minlanishi, hadan ortiq nam bo‘limgan tuproqa olma daraxti gulab bo‘lgandan so‘ng, tuproq qatlami isishni boshlagan vaqtida o‘tkaziladi.

Arab anori ko‘chatini o‘g‘itlar bilan oziqlantirish qoidalari quyidagilardan iborat:

- dastlabki oziqlantirish. O‘simlikning gullashi bilan oziqlantirish talab etiladi bunda ammosoga bir qoshiq , suv 10 litrli chelakda ertib quyiladi.
- o‘rta oziqlantirish. Gullashdan keyin birinchi meva paydo bo‘lgan paytida. Atala 1 stakan, nitrofosga ikki osh qoshiq. Har birini 10 litrli chelakda suv bilan eritiladi va foydaniadi.
- so‘ngi oziqlantirish. Hosilni yeg‘ishdan 3 hafta avval. Har qanday murakkab tarkibli o‘g‘itlardan foydalanish mumkin.

Birinchi sariq gulida o‘simlik changlanishi zarur bo‘ladi. O‘simlik o‘sadigan joylarida hashoratlar bo‘lmas yoki kam bo‘lsa mustaqil ravishda changlanadi. Bu turli jinsli gullarni bir biriga tekazish orqali sodir bo‘ladi. Mevalari avgust oyining ikkinchi yarmidan to‘liq pishib yetilgan bo‘ladi. So‘ngi yillarda mamordika o‘simlikning parnik va balkonlarda, yopiq xonalarda maxsus tuvaklarda o‘stirilmoqda.

Momordikaning bir yillik, ko‘p yillik va liana kabi hayotiy shakllari bor. Qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilasiga mansub.

Momordikaning asosan 2 ta turi kengtarqalgan:- momordica charantia (Hind anori)

- momordica balsamic (balzam nok)

Hozirgi kunda momordikaning dunyo bo‘yicha 20 ga yaqin navlari bor, ular ta’miva meva hajmi bilan farq qiladi.

Eng mashhur navlari:

Kafolat navi - har bir tup o‘simlik 50 tagacha meva beradi. Mevalari shakli

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ovalsimon bo‘lib, uzunligi 15 sm gacha bo‘ladi. Mevalari to‘liq pishganida to‘q sariq rangga kiradi. Balsamik navi - dorivorlik xususiyatlari qolgan navlarga qaraganda yuqori hisoblanadi. Mevalari rangi to‘q sariq mayda bo‘ladi.

Arab anori o‘simlididan kimyoviy preparatlardan tashqari an’anaviy sharq tabobatida chinakam dorivor mahsulotga aylantirib foydanilmoqda. Bu esa sog‘lom turmush tarzini kimyoviy moddalar siz dorivor o‘simliklar mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish qobiliyatni ta’minlab qo‘sishimcha o‘rganishni talab qilsa-da tasdiqlangan dorivor xususiyatlari, to‘g‘ri ishlatilganda ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

Umumjahon nav - don, em-xashak va shuningdek, yaxshilangan dorivor xususiyatlarga ega. O‘sish davri 110 kun. Eng yuqori hosillardan biri: 1 gektardan 2000 sentnergacha hosil beradi. er usti qismining biomassasi va 50 sentnergacha. donalar. Ekish sxemasi: qator orasi 45 yoki 70 sm, o‘simliklar orasida 20 sm. Urug‘larda moy miqdori 7% gacha, moyda skvalenning ko‘p miqdori 10% gacha. Don neft ishlab chiqarish uchun, non mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Ozuqa maqsadida o‘simlikning er usti qismi yashil ozuqa, silos, donachalar, o‘t po‘sti shaklida, quritilgan holda ishlatiladi.

Urug‘larning qaynatmasi- skleroz, diyuretik, prostatit, hemoroid uchun ishlatiladi. 20 dona urug‘ bo‘laklarini maydalab, bir stakan qaynoq suv quyib past olovda 10 daqiqa davomida qaynatiadi. Bir necha soat turib olib, filtrlang va kuniga 3-4 marta 50 ml dan qo‘llaash kifoya qiladi. Mevasidan tayyorlangan damlamasi - yo‘tal, revmatizim, burun oqishi, toshbaqa kasaliga yaxshi natija beradi. Mevalari maydalaniib, shisha idishga solib 0,5 litr spirt quyiladi so‘ng usti yopiladi va 2 hafta salqin qorong‘i joyda saqlanadi. So‘ng ushbu damlama tayyor holga kelgach uni och qoringa 30 daqiqa oldin 1choy qoshiqdan 3 mahal 3 kun ichiladi.

Momordika nafaqat dorivorligi uchun balki dekorativ o‘simlik sifatida ham ekib o‘stiriladi. Momordikaning uzun poyalari uzunligi 2-5 metrga va hatto 10 metrgacha ham o‘sishi mumkin. Momordika poyalari ingichka va jingalak, huddi liana singari bo‘ladi. Barglari katta o‘yilgan, och yashil rangga ega. Ildizlari o‘q

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ildiz. Momordika ildizlarida revmatizmni davolashda ishlatiladigan moddalar triterpen saponinlar mavjud. Momordikaning hosilini to‘la yig‘ib oлganimizdan so‘ng, ildiz, poya va barglarini quritib ko‘pgina kasalliklarni davolashda foydalanishimiz mumkin. Jumladan, momordika ildiz, poya va barglari anemiya, shamollash, yuqori qon bosimi, turli xildagi kuyishlar, Jigar kasalliklari va revmatizmni davolashda ishlatiladi. Momordika gullari sariq, 2 jinsli xushbo‘y yasemin iforli. Momordikaning ajoyib ko‘rinishga ega bo‘lgan mevalari uzunligi 10-25 smgacha, diametri 6 smgacha yetadi. O‘sish va pishib yetilish jarayonida ularni ranglari yashildan to‘q sariq ranggacha o‘zgaradi. Meva ichida 30 tagacha urug‘lari bor. Momordika urug‘lari kuchli qobiq bilan himoyalangan, ular hajmi jihatidan tarvuz urug‘lariga o‘xshash, qizil, jigarrang rangga ega. Xalq tabobatida va zamonaviy tibbiyotda momordikaning barcha qismlaridan -ildizidan, barglaridan, meva va urug‘laridan foydalaniлади. Ildizlari, barglari va urug‘laridan qaynatma va damlamalar tayyorlab iste’mol qilinadi. O‘simlik mevalari esa xom va pishgan holatida qovurilgan, qaynatilgan, tuzlangan va konservalangan holda iste’mol qilinadi. Momordika o‘simligi Osiyo xalqlarida an’anaviy oshxonada ishlatiladi. Sho‘rvalar, salatlar va turli xil ovqatlar tayyorlashda yosh barglari va barra mevalaridan foydalaniлади. Bundan tashqari mevalaridan ekstrakt olinadi.

Conference kasalligiga chalingan bemorlarni davolashda yaxshi samara beradi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mevalaridagi mavjud antiviral va antibakterial faollik tufayli OIV ni davolashda ishlatilishi mumkin. Amerikalik olimlar momordika sharbatidagi moddalar nafaqat saraton hujayralarini o‘sishini to‘xtatibgina qolmay, balki ularni yo‘q qilishini ham aniqladilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, har qanday o‘simlikni yetishtirishdan avval uni kelib chiqish tarixi, botanikasi va morfologiyasini yaxshi o‘rganish kerak. Shu sababli biz ham momordikaning kelib chiqish tarixi, botanikasi va morfologiyasini o‘rganish orqali undan yuqori hosil olish va dorivorlik xususiyatlaridan foydalangan holda aholimiz orasida keng tarqalgan qandli diabed anemiya bolalar gjijasiga qarshi tabiiy yo‘llardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish bu orqali esa aholimiz salomatligini yaxshilashni maqsad qildik.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arxipova N.S., Brus I.P., Chernov I.A. Introduksiya amaranta na zasolennix pochvax. // Introduksiya netradisionnix i redkix seliskoxozyaystvennix rasteniy: Mat. Vserossiyskogo nauchno-proizv. konf., -Penza, 1998. -S. 61-62.
2. Berri Dj. A., Danton U. Dj. Zavisimosti fotosinteza ot faktorov okrujajushey sredi. // Fotosintez. T2-M, Mir. 1987. - S. 273-364.
3. Voyno L.I. , Gins M.S., Grishakova I.V., Chernego T.V. Antimikrobnoe i fungisidnoe deystviya ekstraktov amaranta. // Novie i netradisionnie rasteniya i perspektivi ix ispolizovaniya: Moskva - Pushino. T.Z, 2001.- S. 431 -432.
4. Velibekov R.M., Velibekov M.D., Agafonov N.S. Geterogennosti i indusirovannaya izmenchivosti amaranta. // Introduksiya netradisionnix i redkix seliskoxozyaystvennix rasteniy: Materiali Vserossiyskoy nauchno-proizv. konf. T. 1, -Penza, 1998. -S. 102-104.
5. Gafurov A. I. Sravnitelino - fiziologicheskoe izuchenie vliyaniya maslaamaranta na funksionalinoe sostoyanie organizma jivotnix: Avtoreferat dis...kand. biol. nauk. - Dushanbe, 2003. -19 s.
6. Goncharova E.A., Gins M.S., Xodorensko A.V., Shadrina Z.A., Bulinsev S.V. Regulyatornaya roli amarantina v prosessax rosta i razvitiya rasteniy. // Novie i netradisionnie rasteniya i perspektivi ix ispolizovaniya: Material IV Mejdunarod, simp.- Moskva, Pushino.